

FINLANDIYA TAJRIBASI – BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI SOHASIDAGI ISLOHOTLAR ASOSI

Arifjanova Maxmuda Kabuljonovna

Toshkent shahar Olmazor tumani 11-maktab “Boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi”

Annotatsiya. Bugungi kunda ta’lim sohasida mavjud bo’lgan ba’zi kamchiliklarni bartaraf etishda chet el tajribasidan foydalanishimiz zarur. Chet el tajribasini o’ganish shuni ko’rsatdiki, Finlandiya ta’lim tizimi, ayniqsa boshlang’ich ta’lim sohasidagi tajribasi nihoyatda beqiyos. Dunyoning bir qator yetakchi davlatlari ta’lim tizimini isloh qilishda Finlandiya tajribasidan foydalanib kelmoqdalar. O’zbekistondagi boshlangich ta’lim tizimini Finlandiya tajribasidan foydalangan holda isloh qilish ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so’zlar: ta’lim sohasidagi ayrim muamolar, ta’lim sohasidagi islohotlar, boshlang’ich ta’lim, chet el tajribasi, Bilimni baholash xalqaro tadqiqot dasturi (PISA), Finladiya ta’lim tizimi, professional o’qituvchi.

Annotation. Today we need to use foreign experience to eliminate some of the shortcomings in the field of education. A study of foreign experience has shown that Finland's experience in the field of education, especially primary education, is unparalleled. A number of leading countries of the world use the experience of Finland in reforming the education system. Reforming the primary education system in Uzbekistan using the experience of Finland will help improve the efficiency of the education system.

Keywords: some problems in the field of education, reforms in the field of education, primary education, foreign experience, Program for International Knowledge Assessment (PISA), Finnish education system, professional teacher.

Аннотация. Сегодня нам необходимо использовать зарубежный опыт для устранения некоторых недостатков в сфере образования. Изучение

зарубежного опыта показало, что опыт Финляндии в сфере образования, особенно начального, не имеет себе равных. Ряд ведущих стран мира используют опыт Финляндии в реформировании системы образования. Реформирование системы начального образования в Узбекистане с использованием опыта Финляндии поможет повысить эффективность системы образования.

Ключевые слова: некоторые проблемы в сфере образования, реформы в сфере образования, начальное образование, зарубежный опыт, Программа международной оценки знаний (PISA), финская система образования, профессиональный педагог.

Ta’lim sohasi haqida so’z yuritar ekanmiz, shuni alohida ta’kidlab o’tish joizki, bugungi kunda mazkur sohada olib borilayotgan islohotlar o’zining ijobiy natijalarini bermoqda. Ammo bu muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda, ta’lim tizimida, ayniqsa boshlang’ich ta’lim tizimida o’z yechimini kutayotgan quydagi muamolar mavjud:

- umumtälim muassasalari rahbarlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish masalalarini hal etish, idoraviy mansub tashkilotlarning mulkidan samarali foydalanishda xalq tälimi boshqaruvi organlari rolining yetarli darajada emasligi;

- umumtälim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo‘limgan vazifalar yuklanishi, muassasa direktori va uning o‘rinbosarlari o‘rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi, ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligi;

- umumiyl o‘rta tälimning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarning mavjud emasligi, o‘quv-tarbiya jarayonini uslubiy täminlash masalalarida xalq tälimi bo‘limlari va umumtälim muassasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik darajasining pastligi;

- rahbarlar, o'qituvchilar va umumtälim muassasalari boshqa xodimlarining kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlarining samarasizligi, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarni tekshirish haddan ziyod ko'payib ketganligi;
- tälîm sifatini taminlash, o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish masalalarida umumtälim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining yetarli darajada emasligi, o'quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi;
- xalq tâlimi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik taminlash mexanizmining mukammal emasligi, ularning faoliyatiga zamonaviy mèmoriy yechimlar, innovatsion ishlanmalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi;

Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, tadqiqotchilardan keng ko'lamda ilmiytadqiqot ishlarni olib borish, mahalliy va chet eldag'i ilg'or tajribani o'rghanish, tahlil qilish va amaliyotga tadbiq qilishni talab etadi. Chet el tajribasi haqida so'z yuritar ekamiz, Finlandiya ta'lim tizmi, xususan boshlang'ich ta'lim tizimi sohasidagi tajribasi haqida alohida to'xtalib o'tish lozim. Bu haqida, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2022-yilning 8-oktabrida, Sirdaryo vioyatiga tashrifi davomida jurnalistlar bilan qilgan muloqotida alohida to'xtalib, quydagilarni ta'kidlab o'tganlar: «Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kirkach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar bo'ldi. Finlandiya standarti bilan 1-4 sinflar uchun darsliklar qiladigan bo'ldik. Finlandiya xalq ta'limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi». Finlyandiya ta'lim tizimining yaqin tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qiziq faktlarning guvohi bo'lamic. XX asrning 70-yillariga qadar bir qator kamchiliklar mavjud bo'lib, ular ta'lim tizimini samarali faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qilgan. Natijada ta'lim tizimida jiddiy islohotlarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelgan. yo'nalishlari

belgilab olingan va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo'lib, birinchi jadvalda ular bilan tanishishingiz mumkin.

Islohotlardan oldin	Islohotlardan keyin
Bolalarining qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olmagan holda umumiy boshlang'ich ta'lif amalga oshirilgan	O'quvchilarning yetti yoshdan boshlab qiziqishiga va qobiliyatlarini qarab maxsus fanlarga yo'naltirilgan o'rta maktablarda tahsil olishi joriy etildi
O'qituvchi kadrlar universitetlarda emas, balki kollejlar tomonidan tayyorlangan. O'qituvchilar malakasini oshirishga kam e'tibor berilgan. 90-yilgacha o'quv dastur va rejali davlat tomonidan ishlab chiqilgan	O'qituvchi kadrlar universitetlarda tayyorlanishi, barcha o'qituvchilar ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'llanib magistr darajasiga ega bo'lishi majburiy deb belgilab qo'yildi.
O'quvchilarning salomatligi va psixologik holatiga kam e'tibor berilgan	Barcha maktablarda bolalarining sog'ligi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmni amaliyatga joriy etilgan
O'rta boshqaruv bo'g'ini kadrlarning kompetentligini ta'minlashga kam ahamiyat berilgan	Barcha o'rta boshqaruv bo'g'ini kadrlarning kompetentligini ta'minlandi
Bolaning maktabdan tashqari faoliyati va qiziqishi bo'yicha bandligini ta'minlash masalalariga jiddiy qaralmagan	O'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatini unumli tashkil qilish amalga oshirildi

Amalga oshirilgan islohotlar tez orada o'zining ijobiy natijasini berdi. 2001-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqiyot tashkiloti dunyoning turli mamlakatlarida 15 yoshli o'quvchilar ishtirok etgan birinchi xalqaro tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Bilimni baholash xalqaro tadqiqot dasturi (PISA) testlari asosida fin o'quvchilarining ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasi aniqlandi. Ushbu fanlar bo'yicha o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki

ularni amaliyotda qo'lay olish ko'nikma va malakalari ham baholandi. Bunda Finlandiya 31 ta mamlakatni orta qoldirib, yuqori natijalarni ko'rsatdi. Boshlang'ich ta'lim muammolariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni va internet manbalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda Finlandiya davlatining mazkur sohada erishgan yutuqlari g'oyatda maqtovga sazovor. Uning tajribasidan ko'pchilik chet el davatlari, jumladan, AQSH, Fransiya, Germaniya, Shvedsiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini isloh qilishda samarali foydalanib kelmoqdalar va kutilgan natijalarga erishmoqdalar. Finlandiya ta'lim tizimiga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, uning bir qator o'ziga xos afzalliklari namoyon bo'ladi. **Finlandiyada** ta'lim - hamma uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash deganidir. Tenglik tushunchasi juda qadrlanib, barcha o'quvchilar bilim va qobiliyatlaridan qat'iy nazar, bir xil sinflarda o'qiydi. Ta'lim olish imkoniyatlarini teng ravishda taqdim etish bilan birga, professional o'qituvchilar dars beradi. Finlandiya universitetlaridagi ta'lim fakultetlarining ustunvor vazifasi "**o'zini o'zi boshqaruvchi o'qituvchilar**" ni tayyorlashdan iborat. Ta'lim fakultetiga talabalarning bilimiga qarab tanlanmaydi. Bizning ta'lim tizimizdan farqli o'laroq, bir necha bosqichli tanlovdan so'ng, **kelishuvchanlik, bolalarni tushuna olish, mexnatsevarlik, intiluvchanlik** kabi hislatlarga ega bo'lgan nomzodlar tanlab olinadi. Har yil o'qituvchi lavozimida ishslash uchun istak bildirgan 8500 nozomzoddan atigi 800 nafari tanlab olinadi. O'qituvchilarning yuqori darajadagi bilimlari bolalar rivojlanishining barcha bosqichlarini kuzatib borish va yuzaga kelishi mumkun bo'lgan muamollarning oqilona yechimlarini topish uchun eng muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Finlandiyada o'qituvchilar har bir o'quvchining o'zlashtirishiga qarab o'quv dastur va drasliklarni o'zgartirishlari ham mumkin. O'quvchilarning har biriga individuval e'tibor qaratilishi natijasida, darsga qiziqish va yaxshi o'zlashtirishga erishiladi. Maktab o'quvchilari uchun darslik, yozuv daftarlari, o'quv qurollari har yili bepul taqdim etiladi. Asosiy ta'limni fin o'quvchilar 9 yil davomida olishadi va ularning 60 foizi o'qishini oliy ta'lim muassasalarida davom ettiradi. O'zbekiston bilan taqqoslaydigan bo'lsak,

hozirgi kunda maktab bitiruvchilarining 33 foizigina o'qishni oliy ta'limga muassasalarida davom ettirmoqda. Bunday ko'rsatkichlarni sababini o'rganish uchun O'zbekiston va Finlandiyaning boshlang'ich talim tizimining o'ziga hos jihatlarni tahlil qilish va o'zaro taqqoslab ko'rish mumkin. Asosiy farqlar ikkinchi jadvalda aks etgan.

O'zbekiston	Finlandiya
Maktab formasi majburiy	Maktab formasi majburiy emas
Baholash besh ballik tizimida	Boshlang'ich sinflarda baholash tizimi mavjud emas
O'quv dasturi va darsliklar davlat tomonidan belgilanadi	O'quv dasturi va darsliklar o'qituvchi tomonidan belgilanadi
Uyga vazifa mavjud	Uyga vazifa mavjud emas.
Barcha o'qituvchilar kamida "bakalavr" darajasiga ega bo'lishi shart	Barcha o'qituvchilar kamida "magistr" darajasiga ega bo'lishi shart, hamda uch bosqichli tanlovdan o'tish lozim
Maktab tozaligi maxsus ishchilar tomonidan nazorat qilinadi (ya'ni farroshlar mavjud)	Maktab tozaligi o'quvchilar tomonidan nazorat qilinadi (Finlandiya mакtablarida farroshlar yo'q, barcha tozalik ishlari o'quvchilar tomonidan navbatma navbat bajartiriladi)
Dars vaqtleri 5-6 soat Xususiy mакtablarda esa 7-8 soat	Dars vaqt 4 soat
Maktab o'qituvchilari malakasi har 3 yilda oshiriladi	Maktab o'qituvchilari malakasini oshirish har hafta 2 soatni tashkil etadi
Maktab oshxonalarida achchiq, shirin, sho'r, non maxsulotlari, ayrim zararli mahsulotlar sotiladi	Maktab oshxonasida mahsulotlar bepul bo'lib, sut, suv, meva, va sabzavotlardan boshqa mahsulotlar yo'q
"Raqobat" tushunchasi mavjud	"Raqobat" tushunchasi mavjud

	emas, Fin madaniyatida biri boshqasidan ustun degan tushuncha qadrlanmaydi
Tashqi nazorat va bosim mavjudligi	Tashqi nazorat va bosim mavjud emas

Yuqoridagi tahlildan ko'rinish turibdiki, Finlandiya boshlang'ich ta'lim tizimi bolalarni erkin fikrlash, stress holatlarini yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish, o'quvchilarga individual yondashish, ma'suliyatlilik hissini singdirib borish, bolalar uchun qulay bo'lgan fiziologik sharoitlarni va psixologik muhitni yaratish, o'qituvchilarning yuqori darajadagi professional kompetentsiyasini ta'minlashga qaratilgan. Shubhasiz, bular ta'lim samaradorligini oshirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi va o'quvchilarni o'qishga bo'lgan intilishlarini kuchaytiradi, hamda mazkur ta'lim tizimining yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinflarda puxta olingan ta'lim o'rta va yuqori sinflarda hamda keyinchalik oliy ta'lmi muassasalarida olinadigan bilimlar uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Yuqorida bayon qilingan muloxazalardan kelib chiqqan holda, uzlucksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'lim tizimini sifatini va samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

- ta'lim jarayonidagi talab va tartibni erkinlashtirish hamda o'quv yuklamalarini o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda individuallashtirish orqali yengilliklar yaratib o'quvchilarni maktabga kelishga va ta'lim olishga bo'lgan intilishlarini oshirish;

- o'qituvchi lavozimiga tayinlanadigan nomzodlarning yuqori darajadagi kasbiy kompetentsiyaga ega bo'lishi muntazam ravishda o'z ustida ishlashi va malakasini oshirib borishi;

- ta'lim jarayonida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan qulay sharoitlarni va psixologik muhitni yaratish.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida ta'lim muhim o'rinni egallaydi. Ayniqsa,

boshlang'ich ta'lif tizimi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Chunki uzlusiz ta'lif tizimini keyingi bosqichlarining natijasi va samaradorligi boshlang'ich ta'lif jarayonida olingan bilim va shakllangan ko'nikmalarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lif tizimini bu sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, innovatsion g'oyalarni va ilg'or chet el tajribasini tadbiq etish orqali jiddiy yondashgan holda isloh qilish talab etiladi. Shubhasiz, bu sa'y-harakatlar yaqin keljakda o'z natijasini beradi va jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Rasmiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, constitution.uz
2. Ta'lif tog'risidagi qonun, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son, lex.uz
3. Boshlangich talim konsepsiysi, 24.10.2020 y, lex.uz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Grigoriy Petrov. "Oq nilufarlar yurtida", "Faktor press", 2021 y.
2. Timoti Uoker. "Finlandiya ta'lif mo'jizasi", "Global books", 2023 y.
3. Salberg Pasi. "Финские уроки. История успеха реформ школьного образования в Финляндии", "Арт-транзит, классика- XXI", 2015 г.